

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**FEDERAL DAVLAT AVTONOM OLIY TA’LIM MUASSASASI “MILLIY TEXNOLOGIK  
TADQIQOTLAR UNIVERSITETI “MISIS”NING OLMALIQ SHAHRIDAGI FILIALI  
FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLARI  
TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Federal davlat avtonom oliy ta’lim muassasasi “Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti “MISIS”ning Olmaliq shahridagi filiali faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2018-yil 11-maydagi PQ-3714-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Federal davlat avtonom oliy ta’lim muassasasi “Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti “MISIS”ning Olmaliq shahridagi filialining (keyingi o‘rinlarda Filial deb ataladi) tuzilmasi **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Filial direktoriga, zarur hollarda, muassislar bilan kelishgan holda, Filialning tuzilmasiga oliy ta’lim muassasasi uchun belgilangan normativlarga muvofiq xodimlarning umumiy cheklangan soni va mehnatga haq to‘lash jamg‘armasi doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ Federal davlat avtonom oliy ta’lim muassasasi “Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti “MISIS” bilan birgalikda 2018-yilning 25-sentabriga qadar Filialda pedagogik va ilmiy salohiyatga ega, yuqori malakali, rus va ingliz tillarini mukammal biladigan, axborot texnologiyalarini hamda fan va texnikaning eng so‘nggi yutuqlarini o‘quv jarayoniga joriy eta oladigan professor-o‘qituvchilar tarkibini shakllantirish hamda Filial kutubxona fondini o‘quv, o‘quv-metodik, ilmiy-texnik, badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirib borish hamda zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan jihozlash choralari ko‘rsin.

3. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning o‘z mablag‘lari hisobidan Filialning rahbar xodimlari hamda mahalliy professor-o‘qituvchilar tarkibiga bir oylik maoshidan kam bo‘lmagan miqdorda har oylik ustamalar to‘lash to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosarlari A.A. Abduxakimov va A.S. Sultanov zimmlariga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2018-yil 21-sentabr,  
750-son

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 21-sentabrdagi 750-son qaroriga  
ILOVA

**Federal davlat avtonom oliy ta’lim muassasasi “Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti  
“MISIS”ning Olmaliq shahridagi filialining**

**TUZILMASI**



Filial (fakultetlar, kafedralar va boshqa tarkibiy bo‘linmalar) xodimlarining cheklangan umumiy soni oliy ta’lim muassasalari uchun o‘rnatilgan normativlarga muvofiq aniqlanadi.

Kafedralar o‘quv yuklamlari shakllanib borishiga muvofiq bosqichma-bosqich tashkil etiladi.

*(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.09.2018-y., 09/18/750/2023-son)*